

"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

MAKTAB O'QUVCHILARIDA WORDWALL DASTURIY O'YIN METODIDAN FOYDALANISH ASOSIDA GEOGRAFIK BILIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Matsaidova Sayyora Xudayberganovna

P.f.n., dotsent

Urganch davlat universiteti

e-mail: matsaidovasayyora@gmail.com

Ortikova Iqbol Olimboyevna

Urganch davlat universiteti, doktorant

e-mail: igbola@pmkhiva.com

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish orqali dars o'tish hozirgi davrning dolzARB masalasidir. "Comment?", "VENN", "Pinbord", Sinkveyn, SWOT, FSMU singari pedagogik taxnologiyalar va interfaol metodlar hamda "Framapad", "Jamboard", "Quizlet", "CoogLe", "Padlet", "Learningapps", "Kahoot", "Wordwall", "Test en ligne" kabi elektron dasturlari asosida dars jarayonlarini tashkil etish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Mazkur elektron dasturlar hamda pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish muhim vosita sifatida qo'llanilishi har bir pedagogning muhim vazifasi bo'lmoq'i darkor. Dasturiy texnologiyalardan "Wordwall" dasturiga alohida yondashib geografiya faniga tatbiq qilindi. Bu dastur 2006 yil London (Buyuk Britaniyadagi o'rta maktabda o'qituvchilar tomonidan birinchi sodda ko'rinishdagi versiyasi yaratilgan. Hozirda Dunyoning 12 ta davlatlarida bu dasturdan foydalanishadi. Ingliz tilidan tarjima qilinganda Wordwall (inglizcha)" So'z devor - bu sinfdagi devor, e'lonlar taxtasi yoki boshqa ekran yuzasida katta ko'rinadigan harflar bilan aks ettirilgan so'zlarning to'plamidan tashkil topgan savodxonlik vositasidir.


Bu borada biz geografiya dars jarayonlarida foydalangan "Wordwall" platformasi va undan foydalanish usullari sifatli ta'lim olishga yordam beradi.

Ta'lim jarayoniga o'yin usullarini joriy etish amaliy malakalarni, fikrlash va mantiqni rivojlantiradi, shuningdek, materialni o'rganish samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, o'yin elementlari o'quvchilarning ta'lim jarayoniga jalg qilish darajasini oshiradi. Internet resurslari va o'quvchilar smartfonlari yordamida samarali interaktiv ta'lim muhitini tashkil etish mumkin. Shunday manbalardan biri Wordwall hisoblanadi. Wordwall bilan ishlash uchun siz Internetga ulangan shaxsiy kompyuter, noutbuk, planshet yoki smartfondan foydalanishingiz mumkin.

"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"


atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilmiy-teoriyalıq konferenciya

Wordwall bilan ishslash usullari:




1 - rasm. Wordwall dasturini hosil qilish oynasi.

Yangi Wordwall hosil qilinadi. Google programmasiga kiriladi. “Wordwall” yoziladi. Kerakli bandi tanlanadi.



2 - rasm. “Create Wordwall Create” bandi tanlanadi. “Start typing your question” bandiga savol kiritiladi.

“Add answer 1, 2, 3, 4” bandiga javoblar kiritiladi hamda to‘g‘ri javob to‘g‘risiga to‘g‘ri belgisi qo‘yiladi. Keyingi savolga o‘tish uchun “Add question” bandi tanlanadi.



3 - rasm. question”

“Test

ro‘yxatidan o‘zimizga ma’qul bo‘lgan test turini tanlaymiz.

“Save” tugmasi tanlanadi va xotiraga saqlanadi. Tuzgan testlarimiz “Library” minyusida saqlanadi.

Bundan tashqari mazkur platforma jamoaviy ta’lim vositasi bo‘lib, uni samarali ishlatish uchun ishtirokchilar jamoasi kerak. Viktorina yaratish bir necha daqiqa davom etadi va jarayonning o‘zi juda oddiy va hech qanday

“Add
bandi.
knowledge”

"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

qiyinchilik tug‘dirmaydi. Viktorina tayyor bo‘lishi bilan o‘qituvchi o‘yinni joylashtiradi va uni o‘quvchilarga taqdim etadi. Bunda ishtirokchilar bitta ekran oldiga yig‘ilishadi va o‘yin kodidan foydalanib o‘z qurilmalaridan o‘yinga kirishadi.

Wordwall interaktiv va bosma materiallarni yaratish uchun ko‘p funktsiyali vositadir. Aksariyat shablonlar ham onlayn, ham chop etadigan versiyalarda mavjud. Ko‘pgina o‘quvchilar xizmatning rus tilidagi versiyasiga ega ekanligidan mammun bo‘lishadi. U brauzeringizda avtomatik ravishda paydo bo‘ladi. Interaktiv mashqlarni internetga ulangan har qanday qurilmada: kompyuter, planshet, telefon yoki interaktiv doskada o‘ynash mumkin. Chop etish mumkin bo‘lgan versiyalar chop etilishi va mustaqil o‘quv faoliyati sifatida ishlatalishi mumkin.

Wordwall platformasini geografiya darslarida qanday qo‘llash mumkin. Bu platforma orqali dars uchun bitta mavzudan qiziqarli 18 ta “activity” tayyorlash mumkin. Bularidan bir nechtafiga misol keltiramiz.

1. Match up - Moslashtirish har bir so‘zni mosini topish (Geografiya darslarida mavzu yuzasidan darsni mustahkamlash qismida “so‘z o‘yini ” hosil qilish mumkin).

2. Speaking cards - Talaffuz (Geografik atamalarni to‘g’ri talaffuz qilishda ishlatsa bo‘ladi). 2. Flash cards - Rasmiy savollar bilan ishslash. 3. Spin the wheel - Spinerga savollar joylashtiriladi, qaysi savol kimga tushsa shu o‘quvchi savolga javob beradi. (Savollarni raqamlar tarzida ham qo‘llash mumkin). 4. Group sort - Guruhlarga ajratish (Dengizlar, daryolar, ko’llar misolida bo‘lishi mumkin). 5. Anagram - Harflardan so‘z yoki atamalar hosil qilish. 6. Find the match - Mantiqiy savollar bilan ishslash (Savol beriladi javob varianlaridan - bittasini belgilash). 7. Unjumble - So‘zlar ketma-ketligini to‘g’ri tanlash. 8. Matching pairs - Atamalarga mos rasmlarni topish. 9. Open the box - Qutidagi savollarga javob berish (Raqamlar, sonlar bilan ishslash). 10. Labelled diagram - Ko‘rsatilgan geografik joyning nomini topish (Xarita bilan ishslashda qo‘l keladi). 11. Wordsearch - Yashiringan so‘z va atamalarni topish. 12. Flip tiles - Nuqtalar o‘rnida yashirin so‘zni topish. 13. Hangman - Atama va so‘zlarda tushirilgan harfni topish. 14. Crossword - Krassword. 15. Gameshow quiz - To‘g’ri javobni tanlash (Rasm va xaritadan ham foydalanish mumkin) [5,6].

Wordwall - onlayn testlar va so‘rovlar yaratish imkonini beradi. Bundan tashqari matnga qo‘sishimcha ravishda Wordwall rasmlar, grafiklar, jadvallar, shuningdek, audio va video kontentni yuklash imkonи mavjuddir. O‘quvchilar savollarga Internetga ulangan istalgan qurilmadan javob berishlari mumkin.

"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

Ushbu resursning ajoyib afzalligi natijalarni saqlash qobiliyatidir, shunda keljakda o‘qituvchi kelgusi o‘quv yili uchun o‘quv materialining mazmunini tahlil qilishi va qayta ko‘rib chiqishi mumkin. Shuningdek, talabalar uchun qaysi mavzularni o‘rganishda qiyinchilik tug‘dirishini aniqlash mumkin. O‘rganilayotgan material yuzasidan bilimlarni sinab ko‘rish uchun turli interaktiv testlar va so‘rovlardan foydalanib, o‘quv jarayonini hayajonli va dinamik ko‘rinishda amalga oshirish imkonini beruvchi ma’lumotlar aks ettirishi bayon qilinadi [1].

Shuningdek, savollarga javoblarning to‘g‘riliği va reaksiya tezligi ballarga aylantiriladi va muntazam ko‘rsatib boriladi. Har bir savoldan keyin ekranda eng ko‘p ball to‘plaganlarning ismlari ko‘rinib turadi. O‘qituvchi istalgan vaqtda pauza qilishi va agar talabalar javob berishga qiyalsa savolga izoh berishi mumkin bo‘lishi o‘rganilgan bo‘lib o‘quvchilarning testlar bilan ishlash jarayoni ham o‘rganilib chiqilganini ko‘rishimiz mumkin [2].

D.V Lichargin., A.S Kuznetsov., R.Yu Sarevlarning fikricha, Wordwall xizmati bilan ishlashga tayyorgarlik va tashkil etish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

- mavzuni aniqlash, test uchun mos savollarni o‘ylab ko‘rish va yozish;
- testga qo‘shiladigan rasmlarni tanlash;
- test yaratish;
- maxsus kod yordamida talabalarni testga ulash.

Wordwall oraliq bilimlarni sinab ko‘rish va materialni mustahkamlash bilan birga yangi mavzuni kiritish va bu bo‘yicha muhokamalarni amalga oshirish uchun qulay vositaligi ta’kidlab o’tiladi [3].

Ushbu platforma istalgan mavzuda va istalgan tilda topshiriqlaringizni tuzish imkonini beradi, yoki ilovaning boshqa foydalanuvchilari tomonidan ilgari yaratilgan millionlab vazifalarni o‘z ichiga olgan kutubxonada tayyor tematik test yoki so‘rovni tanlashingiz mumkin.

O‘qitishda qator afzalliklarga ega bo‘lgan yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, o‘quv jarayonini yangicha tashkil etish imkonini beradi, uning amaliy yo‘nalishini oshiradi va o‘quvchilarning intellektual salohiyatni rivojlantiradi [4].

Wordwall dasturidan darslar jarayonida foydalanish uchun auditoriyada Internet tarmog‘i mavjud bo‘lishi va undan samarali foydalanish uchun tegishli texnika vositalari (kompyuterlar, tarmoqqa ulangan telefon, proyektor) mavjud bo‘lishi kerakligi haqida bayon etilgan. Wordwall dasturidan darslarda foydalanish imkoniyatlarni xususida bir qator fikrlar ilgari surilgan. Wordwall

"GEOGRAFIYA – KELESHEKKE KÓZ-QARAS"

atamasındağı Respublikalıq kólemdegi ilmiy-teoriyalıq konferenciya

platformasidan nafaqat dars jarayonlarida yakuniy nazorat oraliq nazoratlarda ham keng foydalanish mumkinligi to‘g‘risida ilmiy xulosalar keltirilgan. Ushbu dastur platformasini barcha fanlarga tadbiq qilish mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Лазутова Н.М., Волкова И.И. Этическое и игровое в установках коммуникаторов разных поколений //European Social Science Journal (Европейский журнал социальных наук). 2013. № 11. – С. 285–291.
2. Козина Е.С. Геймификация профессиональной деятельности как эффективный инструмент мотивации персонала современной организации // Современные проблемы науки и образования. 2015.
3. Личаргин Д.В., Кузнецов А.С., Царев Р.Ю. Активные методы обучения в рамках инициативы CDIO по направлению “Программная инженерия” // Современные проблемы науки и образования. 2014. № 3.
4. Tursinbaeva, Gaypova Roza, Turdibekova Zamira Muzapparovna, and Koshkinbaeva Mekhriban Turganbaeva. "THE IMPLEMENTATION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING GEOGRAPHY." *International Journal of Pedagogics* 3.10 (2023): 53-56.
5. Gaypova R. T., Jamalatdinova N., Nasirova D. GEOGRAFIYA TALIMINDE MASHQALALIQITIWDINORNI НАМАНМИЙЕТИ //Наука и технология в современном мире. – 2023. – Т. 2. – №. 22. – С. 34-36.
6. Xodjaeva G. A., Gaypova R. T., Turdibekova Z. M. Talabalarning ijodiy geografik qobiliyatini rivojlantirishda muammoli tálim texnologiyalardan foydalanish //Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университетининг ахборотномаси. – 2023. – Т. 1. – С. 59.
7. Гайпова Р., Турдыбекова З., Байрамова А. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ГЕОГРАФИИ //Экономика и социум. – 2023. – №. 12 (115)-1. – С. 1037-1041.

Internet manbalari:

1. <http://sjifactor.com/passport.php?id=22258> 234-240 bet
2. <https://wordwall.net/about>
3. <https://Wordwall.net/ru>